

**O'ZBEKISTON QO'RIQXONALARI. HISOR QO'RIQXONASI**

TALABA: Shahrizabz davlat pedagogika instituti Boshlang'ich ta'lim

yo'nalishi Abdurashidova Elnura

ILMIY RAHBAR: Alimardonova Mo'tabar

ANNOTATSIYA: *Yer yuzida yildan - yil tabiat burchaklariga inson qo'li etmagan yerlar kamayib bormoqda, ya'ni tabiatdagi cho'l, tog' va o'rmonlarning asl qiyofasini ko'rishga imkoniyat qolmayapti. Tabiatning asl muhitini va unda yashayotgan barcha jonzoatlarni saqlab qolish uchun davlat tomonidan Qo'riqxonalar tashkil qilingan.*

KALIT SO'ZLAR: *Qo'riqxona, milliy bog', fauna, o'simliklar, Hisor qo'riqxonasi.*

Annotation: *Every year in the corners of the Earth is declining, which is not possible to see the deserted lands in nature, that is, there is no opportunity to see the deserts, the tables in nature. The state established by the state to save the original nature of nature and all living things that live in it.*

Keywords: *Nature Reserves, National Garden, Fauna, Plant, Gissar Nature Reserve.*

Qo'riqxona — belgilangan qonunlarga muvofiq, davlat tomonidan ajratilgan, alohida ilmiy yoki mahaliy ahamiyatga ega bo'lgan (tipik yoki noyob landshaft, o'simliklar va hayvonotning dunyosi, foydali qazilmalar va b.), tabiiy obyekt joylashgan yer (hudud) yoki suv kengliklari; i. t. va madaniy-ma'rifiy maqsadlar uchun uzoq mud-datga ajratilgan va to'raligicha xo'jalik ishlaridan xoli tabiiy majmua.

20-asrning 90-y.larida BMTning "Milliy bog'lar va ular maqomidagi qo'riqxonalar ro'yxati"ga 2618 alohida qo'riqlanadigan hududlar (yer may-doni 4 mln. km²dan ortiq va Yer yuzidagi quriqlikning 3% ini tashkil qiladi) kiritilgan hududi va uning atrofidagi bel-gilangan chegaradagi muhofaza qilinadigan zonalarda



qo'riqxonalar tabiiy majmuasiga zarar yetkazadigan yoki tabiiy obyektlarga xavf tugdiradigan har qanday faoliyat (ov qilish, baliq tutish, daraxt kesish, foydali qazilmalarni kavlash, o't o'rish, mol boqish va boshqalar), shuningdek, Qo'riqxonalar faoliyati bilan bog'liq bo'lgan sanoat va qo'shma korxonalar obyektlari qurilishi ham taqiqlanadi. Qo'riqxonalar hududiga ma'muriyatning ruxsatisiz begona odamlar kiritilmaydi.

O'zbekistonda qo'riqxonalarning tashkil qilinishi, faoliyati, ta'minoti va muhofazasi O'zbekiston Respublikasining 2004 y. 3 dekabrda "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi qonuni bilan tartibga solinadi. Qo'riqxonalarda reja asosida ilmiy tadqiqot ishlari olib boriladi, tabiat yilnomalari, ilmiy hisobotlar (yillik, besh yillik) tuziladi, tavsiyanomalar, qo'riqxonalar hududi va milliy bog'larda qo'riqxonalar tartibiga rioya qilish talab va qoidalari ishlab chiqiladi

O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining Ovchilik xo'jaliklari, qo'riqxonalar va milliy bog'lar boshqarmasi, Geologiya va mineral resurslar davlat qo'mitasi tasarrufida 8 ta davlat qo'riqxonasi bor: Zomin tog'-o'rmon davlat qo'riqxonasi, Badayto'qay davlat qo'riqxonasi, Qizilqum davlat qo'riqxonasi, Zarafshon davlat qo'riqxonasi, Surxon davlat qo'riqxonasi, Hisor davlat qo'riqxonasi, Chatqol bio-sfera qo'riqxonasi, Kitob davlat geologiya qo'riqxonasi. O'zbekistonda, shuningdek, milliy bog' va buyurtma qo'riqxonalarda faoliyat olib boradi

Qo'riqxonalar va milliy bog'lar kuni 1997 yilda Yovvoyi hayvonlarni muhofaza qilish markazi va Jahon yovvoyi tabiat jamg'armasi tashabbusi bilan ta'sis etilgan. Qo'riqxonalar va milliy bog'larning xodimlari o'simliklar va hayvonot olami genetik fondini asrashga harakat qiladilar, tadqiqotlar o'tkazadilar, muhofaza etiladigan zonalarga brakonyerlar kirmasligini nazorat qiladilar.

Hozirgi vaqtda davlat O'zbekiston Muhofaza etiladigan tabiiy hududlari tizimini belgilagan. Ushbu tizimga quyidagilar kiradi: qattiq qo'riqlash rejimi o'rnatilgan 6 qo'riqxonalar;

7 milliy bog'lar;

jayronlarni ko'paytirish uchun 1 parvarishxona – "Jayron" ekomarkazi;



u yoki bu darajada faoliyat ko'rsatuvchi 10 buyurtma qo'riqxonasi;

12 davlat tabiiy yodgorligi; va

2 biosfera rezervati (Ugam Chatqol davlat biosfera rezervati 2018 yil 31 dekabrda 1062 son qarori, Quyi Amudaryo davlat biosfera rezervati. O'zbekiston Respublikasi Hukumatining 2011 yil 26 avgustdagi 243-son Qarori bilan «Baday – To'g'ay» davlat qo'riqxonasini tugatish asosida tashkil etilgan)

Qo'riqxona- bu akvatoriya yoki territoriya, xo'jalikdan butunlay ajratilgan yer maydoni bo'lib hisoblanadi. Qo'riqxonalar- tabiatning ilmiy laboratoriyalari bo'lib, u erda tabiat rivojlanish qonuniyatlarining murakkab tekshirishlari va kuzatishlari o'tqaziladi. Qo'riqxonalarda ayrim hayvon zotlari va o'simlik turlari o'rganiladi, hamda bu yerda insonning har qanday ta'siri umuman ta'qiqlanadi.

O'zbekistonda, birinchi Qo'riqxona- 1929 yilda Turkistonning g'arb qismida tashkil qilingan bo'lib, 8000 gektar (ga) maydoniga ega. Keyinchalik yer maydoni 15600 ga kengaytirilgan. U hozirda Zomin nomini olgan.

Ikkinchi Qo'riqxona - 1941 yilda Orol daryosi qirg'oqlarida tashkil etilgan bo'lib, 300000 gektar (ga) maydoniga ega.

Uchinchi Qo'riqxona - 1947 yilda Toshkent oblastining Ohangaron va Parkent tumanlari atrofida tashkil qilingan bo'lib, maydoni 22000 gektardan 35686 ga kengaytirilgan va hozirda Chotqol nomi bilan ataladi.

1961 yilda O'zbekiston Fanlar Akademiyasining Qo'riqxonasi tashkil qilindi, hozirda Surhondaryo Qo'riqxonasi deyiladi.

1971 yilda respublikada 3 ta Qo'riqxona: Qoraqalpoqda- Baday Qo'riqxonasi, Buhoroda- Qorako'l va Qizilqum Qo'riqxonasi tashkil qilingan.

1975 yilda yana 4 ta Qo'riqxonalar tashkil etildi. Vardanzi (Buhoroda), Nurota (Nurotada), Qizilqum (Qashqadaryoda), Zarafshon (Samarqandda).

1976 yilda Qashqadaryoda Miroqchi Qo'riqxonasi, 1977 yilda Jizzaxda Arnasoy, 1978 yilda Farqonada Abdusamat, 1986 yilda Surhondaryo Qo'riqxonasi tashkil etilgan, yer maydoni 245002 gektarga ega, uning tarkibiga Orol Payg'ambar Qo'riqxonasi qo'shildi. Yuqorida aytib o'tilgan Qo'riqxonalardan boshqa respublikamiz territoriyasida yana bir qancha Qo'riqxonalar bor. Ulardan tashqari



milliy boğkarimiz, tabiiy yodgorliklarimiz ham bor. Har qaysi Qo'riqxonada ma'lum bir o'simlik turlari va hayvon zotlari saqlanadi, ularning yashashi, ko'payishi, iiziologiyasi, tabiati o'rganiladi

Hisor davlat qo'riqxonasi O'zbekistonning janubiy-sharqiy qismida, Qashqadaryo viloyatining Shaxrisabz, Yakkabog' va Qamashi tumanlari hududida, Hisor tog' tizmasining g'arbiy yonbag'irlarida, dengiz satxidan 1750 m dan 4366 m gacha balandlikda joylashgan.

Qo'riqxona janubiy-sharqda Surxondaryo viloyati, sharqda Tojikiston Respublikasi bilan chegaradosh.

Hisor davlat qo'riqxonasi 1983 yilda Qashqadaryo viloyatidagi ikki mustaqil Miroqi va Qizilsuv qo'riqxonalarini birlashtirish natijasida O'zbekiston Ministrlar Sovetining 09.09.1983 y. № 521 sonli qaroriga asosan tashkil etilgan.

Umumiy yer maydoni 80986,1 ga. Shundan, 2000 gektar ekoturizm uchun ajratilgan qo'riqlanma zona hisoblanadi. Qo'riqxona 4 ta bo'limga bulingan:

- G'elon bo'limi yer maydoni - 18838,1 ga.
- Miraki bo'limi, yer maydoni - 11821,0 ga.
- Tanxozdaryo bo'limi yer maydoni - 20233,0 ga.
- Qizilsuv bo'limii yer maydoni - 30094,0 ga.

Qo'riqxona hududi 17 ta sarxad, 54 ta aylanish bulakchasi (kvartallardan) iborat.

Hisor davlat qo'riqxonasi Pomir-Oloy tog' tizimiga kiradigan Hisor tizmasining shimoliy-g'arbiy kismida joylashgan.

Uning butun hududi yagona massiv sifatida sharqdan g'arbga 37 km, shimoldan janubga 90 km ga cho'zilgan.

Tog' yotqiziqlari ichida paleozoy jinslari ko'p uchraydi.

Cho'qqilarining balandligi 2500 metrdan 4421 metrgacha. Jumladan, Xazrati Sulton tog'i - 4266 m, Xo'ja-kirshavor - 4303 m, To'rtqo'ylik – 4366 m, Bibi-O'lmas tog'i – 4349 m.

O'zbekistonning eng baland nuqtasi ham qo'riqxonaning To'rtqo'ylik tog'idagi dengiz sathidan 4421 metr balandlikda joylashgan nomsiz cho'qqidir.



Qo'riqxonahududida mezazoy-kay-nazoy davri yotqiziqlarida karst jarayonlari keng tarkalgan va o'ralar, daralar, tokcha va g'orlar ko'plab uchraydi. Ushbu tog' daryolari va soylari chukur daralarni (kononlar) hosil qiladi.

Hisor davlat qo'riqxonasi hududida balandligi 4500 metrgacha bo'lgan cho'qqilar: Hazrati Sulton, Xo'ja qirshivor, To'rtqo'ylik, Bibi O'lmas, Nomsiz cho'qqilari joylashgan bo'lib, ular Surxondaryodagi Xo'japirpir ota, Xo'japiryak hamda Osmon talash cho'qqilari bilan yonma-yon qad ko'targan, ularning soni jami yettita.

Mazku tog' cho'qqilarining etagida turgan odam cho'qqiga yaqin bo'lgan boshqa ikki yoki uchta cho'qqini albatta ko'ra oladi. Shuning uchun ularni «etti aka-uka», deyishadi.

Mamlakatimizning eng baland cho'qqisi – Nomsiz cho'qqi. Bu cho'qqiga hozirgi kungacha ham hech kim chiqolmagan. Shuning uchun unga hozirgi kungacha nom qo'yilmagan. Uning balandligi dengiz sathidan 4421 metrni tashkil qiladi. Nomsiz cho'qqi Hisor davlat qo'riqxonasining G'ilon bo'limida joylashgan.

Abadiy muzliklar mavjud bo'lgan ushbu cho'qqilardan To'palangdaryo va Oqsuv daryolari boshlanadi. Bu yerda ancha yirik Botirboy muzligi joylashgan, uning maydoni 1600 gektar. Oqsoy daryosining yuqori irmog'i va uzunligi 9-10 km bo'lgan Xoliqdod soyi Botirboy muzligidan boshlanadi.

Hisor tog' tizmasi dengiz va okeanlardan o'zoqda joylashgan, shu sababli qo'riqxonahududi tez o'zgaruvchan iqlim sharoitiga ega va meteorologik ko'rsatkichlar tez-tez o'zgarib turadi.

Kuz va qish oylarida yillik yog'inning 64% yog'ishi kuzatiladi. May oydan sentyabr oyigacha yog'inlarning kamligi yoki umuman bo'lmasligi o'simliklar vegetatsiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Qo'riqxonahududining turli geografik kesimdagi relefda joylashishi bu yerda shamol yo'nalishini o'zgarishiga sabab bo'ladi, ya'ni kechasi tog'dan pastlikka qarab, kunduzlari esa pastlikdan yuqoriga shamol esishi kuzatiladi.

Qo'riqxonahududidagi daryolar Surxondaryo viloyati va Tojikiston Respublikasida joylashgan Severtsev hamda Botirboy muzliklaridan (3155 gektar)



boshlanadi. Ularning eng yiriklari Oqsuv, Tanxoz va Qizildaryo daryolari hisoblanadi. Daryolar kor, muz, yer osti suvlari va yog‘inlardan to‘yinadi, ularning o‘zanlarida katta-kichik sharsharalar mavjud.

Oqsuv daryosining asosiy irmoklaridan biri hisoblangan Tamshush daryosi dengiz satxidan 3500 metr balandlikda joylashgan Xo‘jaqulbars koyalaridan boshlanib, qor, yomg‘ir va buloklar suvlaridan to‘yinadi. Qo‘koshsoy, Zardolisoy, Shoyurti, Layloqcha, Maydanak, Yurtikalon kabi 32 ta katta-kichik soylar suvidan tashkil topadi va Oqsuv daryosiga ko‘shiladi

Tanxozdaryoning uzunligi 104 km., suv yig‘adigan maydoni 459 kv.km.ni tashkil etib, u dengiz satxidan 2200-3500 metr balandlikda joylashgan Otatush, Ulug‘dara, Chot, Xo‘jagardon, Sarituz, Qarankul, Okdaryo, Qashkabulok kabi 27 ta katta-kichik soy suvlari hisobiga hosil bo‘ladi. Ushbu daryo o‘zani bo‘ylab Qorakamar, Almati, Kosatarosh, Sho‘rxasan, Kamar. Ommag‘on, Xitoy, Hazara va boshqa qishloqlar joylashgan.

Hududning sersuv manbalaridan biri Qizilsuv daryosi dengiz satxidan 4000-4300 metr balandlikda joylashgan Avg‘oyi-kalon dovonidan boshlanadi, uning uzunligi 110 km.ni, suv yig‘adigan maydonining satxi esa 650 kv.km.ni tashkil etadi. U tog‘ cho‘qqilaridagi qorlarning erishi xamda Kizilbulok, katta-kichik Qal‘asoy, Oqsuv, Shilhazor, Avg‘oyi-kalon kabi soylar suvidan xosil bo‘ladi.

Hisor ko‘riqxonasi hududida katta-kichik 10 ga yaqin ko‘llar bor. Jumladan, G‘ilon bo‘limida 3 ta, Miraki bo‘limida 2 ta, Tanxzdaryo bo‘limida 1 ta va Qizilsuv bo‘limida 2 ta ko‘l mavjud. Bugungi kunga qadar ular to‘liq o‘rganilmagan, faqatgina ko‘llarning dengiz satxidan balandligi, sathining eni va bo‘yi aniqlangan xolos.

Ko‘riqxona xududidan boshlanib Qashkadaryo viloyati bo‘ylab okayotgan Okdaryo, Tanxozdaryo va Qizildaryolar Qashqadaryo vohasi xududi axolisining 35-40% ini ichimlik suvi bilan ta‘minlaydi. Daryolarning hayotbaxsh suvi Kitob, Shaxrisabz, Yakkabog‘, Chiroqchi, Qamashi, G‘uzor, Qarshi, Koson tumanlarida kishlok xo‘jaligi maxsulotlarini yetishtirishda, bog‘lar barpo etishda va boshqa xo‘jalik tarmoqlarida foydalaniladi.



Hisor davlat ko'riqxonasi o'simliklar dunyosi juda boy va xilma-xil bo'lib, ularni muhofaza qilish va o'rganish ko'riqxona xodimlarining asosiy vazifalaridan biridir. Qo'riqxona xududida 970 turdagi o'simliklar o'sishi aniklangan. Ular 81 oilaga kiruvchi 384 turkumga mansub.

Ulardan kamyob va yo'kolib borayotgan 30 tur o'simlik O'zbekiston Respublikasi "Qizil Kitobi"ga kiritilgan. dilband lola, ulug'vor lola, nor shirach, oq parpi, sunbul kovrak, O'zbekiston chinniguli shular jumlasidandir.

Pomir-Oloy tot tizimida endemik hisoblangan o'simliklarning turi 80 dan ortiq bo'lib, ulardan qo'riqxona xududida Kichik va Katta yuno, Aleksey piyozi, Fedchenko piyozi, Tog'bargli piyoz, Rozinbax piyozi, O'zbekiston chinniguli, Bobrov va Kudryashev astragallari, Olta, Tubergen, Chimyon lolalari o'sadi.

Ko'riqxona hududida o'sadigan o'simliklarning 250 turdan ortig'i dorivor va ozuqabob hisoblanadi. Ulardan qirkbo'g'im, zira, zirk, oltin tomir, chakanda, rivoch, buymadaron, shuvok, toron, saleb, ruyan, sumbul, kiyik o'ti, kizilpoycha xalq tabobatida, Oshanin piyozi, tog'bargli piyoz, rivoch, zira, alqor kabilar maxalliy xalq tomonidan ozuqabob o'simlik sifatida ko'p ishlatiladi.

Muxofaza etiladigan tabiiy hududlar va u yerdagi bioxilma-xillikni asrab-avaylashga doir qo'riqxona xodimlari tomonidan ommaviy axborot vositalari orqali hamda mahallalar aholisi bilan muntazam ekologik targ'ibot sohasidagi tadbirlar ko'lamini kengaytirish.

Ekotarg'ibot ishlarini mahalla faollari, OAV, ta'lim maskanlari, xalqaro va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirish.

"Hisor davlat qo'riqxonasi" nomli o'simlik va hayvonot dunyosi tug'risidagi fotoal'bomni kengaytirilgan qo'shimcha yangi ma'lumotlar bilan boyitilgan variantini tayyorlash (o'zbek, rus va ingliz tillarida).

Hisor davlat qo'riqxonasidagi o'simlik va hayvonot olami to'g'risidagi ma'lumotlarni maktab uquvchilari uchun o'quv dasturlarini kiritish maqsadida Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim va Xalq ta'lim vazirliklarining hamkorligini yo'lga qo'yish.



Qo'riqxonada tabiiy majmualari to'g'risida aholining turli yosh qatlamlarini hisobga olgan holda tayyorlangan buklet, risola va boshqa ma'lumot manbalari hamda tarqatma materiallarning ommabopligiga erishish.

Hisor davlat qo'riqxonasi flora va faunasi, ekoturistik salohiyati hamda boshqa maqsadlarga muljallangan videolavhalar tayyorlash va namoyish etilishini ta'minlash.

“Qor qoplon” to'g'risida multfilm yaratish uch tilda.

XULOSA:

Qo'riqxonalarda turli ilmiy ishlar olib boriladi. Olimlar tabiat qonunlarini, o'simliklar bilan hayvonlarning hayotini o'rganadilar. O'simliklar va hayvonlarniko'patirushuchunengyaxshi sharoitlar yaratadilar. Hayvonlar ancha ko'payib qolgan joylardan ular bemalol yashay oladigan joylarga ko'chirishadi. Olimlar qadam yetmaydigan joylarda vertalyotlar yordamida kuzatishadi. Vertalyotlar yordamida oziq solingan qoplar hayvonlarga tashlanadi. Kasal hayvonlar qo'riqxonalarda davolanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Safarova R.G., Abdullayeva B.S . Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasi.-Toshkent, 2019.
2. O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi Qonuni. (1997-yil 29-avgustda qabul qilingan).